

Hindistonda ta'lim olish va sayohat qilishni xohlaganlar uchun ITEC dasturi: kurslar, stipendiya hamda o'qish muddati haqida

ITEC (The Indian Technical and Economic Cooperation) – Hindiston Mahkamasi tomonidan 1964 yilda Hindiston hukumati uchun ikki tomonlama yordam dasturi sifatida ishlab chiqilgan.



ITEC nima?

ITEC “har ikki tomon uchun nafaqat umumiy qabul qilingan me'yorlar va ideallar, balki mustahkam iqtisodiyot asosiga qurilgan o'zaro bog'liqlikni o'rnatish zarurati” mavjudligi uchun vujudga kelgan. Dastur Hindiston hukumati tomonidan to'liq moliyalashtiriladi hamda dunyoning 161 mamlakati bilan milliy rivojlanish maqsadida amalga oshiriladi.

Stipendiya bormi?

ITEC dasturi ishtirokchining o'qishi davomida barcha yashash harajatlarini to'liq qoplaydi hamda oyiga 25 ming rupiy (342.25 dollar) stipendiya va o'quv qurollari sotib olishga 5 ming rupiy (68.45), shuningdek, O'zbekistondan Hindistongacha samolyot chiptasi sarflari uchun mablag' bilan ta'minlaydi. Kurslarda o'qish mobaynida butun Hindiston bo'ylab sayohatlar ko'zda tutilgan.

ITEC haqida qisqacha

Til – ingliz tili;

Imtihon dasturiga hujjat topshirish haqida – batafsil SHU YERDA:

Tashkilotchi – Ministry of External Affairs of India;

Rasmiy sayt – <https://www.itecgoi.in>;

Nechta davlatda o'tkaziladi – 161 dan ortiq;

Muddat: Yilda ikki marta – taxminan yozda va kuzning oxiri yoxud qishda. ITEC dasturlariga hujjat topshirish dasturga qarab farq qiladi. Shu sababli har bir dasturning hujjat topshirish muhlatini alohida ko'rib olish kerak bo'ladi (quyiroqda dasturlar va ularga havolalar berilgan. Tanishib chiqish mumkin).

O'zbekistonda hujjat topshirish – Hujjatlar Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasiga topshiriladi. Elchixona sayti: <https://eoi.gov.in/tashkent/>; Mas'ul shaxs: Kuldeep Kumar; Email: itec.tashkent@mea.gov.in; Telefon: (+998 71)140 09 97, (+998 71)140 09 83.

Qanday hujjat va qay tartibda?

Dastlab arizaning elektron shakli to'ldiriladi (qaysi yo'nalish yoki institutga hujjat topshirish haqidagi ma'lumot SHU YERDA) va mamlakatdagi hukumat departamentiga jo'natiladi: SHU YERDA;

Hukumat departamenti arizani o'z navbatida Hindiston elchixonasiga yuboradi;

Nomzodlar arizaning qog'oz shaklini quyidagi hujjatlar bilan Hindiston elchixonasiga topshirishlari lozim:

Tavsiyanoma (asl nusxasi);

Nomzodning mehnat daftarchasi nusxasi;

Pasport nusxasi;

Diplom, sertifikat (akademik darajasi tasdiqlovchi hujjatlar) nusxasi;

Kimlar uchun?

Davlat tasarrufidagi va qisman davlat tasarrufida bo'lgan tashkilotlarda faoliyat yurituvchi shaxslar, shuningdek, hukumat, savdo-sanoat palatasi va oliygohlar tomonidan tavsiya etilgan va nodavlat muassasalarda ishlaydiganlar uchun.

Nomzodlarga qanday talablar qo'yiladi?

Belgilangan kursga mos keluvchi akademik talablarga javob berishi;

Ingliz tilini bilishi;

25 dan 45 yoshgacha bo'lishi;

Kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;

Tibbiy jihatdan o'qishga yaroqli bo'lishi kerak.

Muhim!

Ariza Hindiston elchixonasiga kurs boshlanmasidan kamida 3 oy oldin kelib tushishi kerak;

Tanlovdan keyin Hindiston elchixonasi nomzodni bu haqida ogohlantiradi;

Tanlab olingan nomzodlar elchixona sayti orqali Hindistonda yashash va o'qish talablari haqida to'liq tanishishlari lozim;

Arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish faqatgina Hindiston Tashqi Ishlar vazirligi vakolatida bo'ladi;

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun Hindiston elchixonasining tashkentmea.gov.in manziliga murojaat qiling.

Qanday kurslarda o'qish mumkin va muddati qancha?

ITEC dasturi 300 dan ortiq qisqa, o'rta va uzoq muddatli kurslarda o'qishni taklif etadi. Quyida ulardan ayrimlari keltirilgan:

-Bank ishi, sug'urta, moliya, buxgalteriya va audit;

-Qishloq ho'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari va o'g'itlar;

-Ingliz tili;

-Sun'iy intellekt;

-Kiber texnologiyalar;

-Ta'lim;

-Injenerlik va texnologiya;

-Atrof-muhit va ekologiya;

-Davlat boshqaruvi;

-Salomatlik va yoga;

-Inson resurslarini boshqarish va rejalashtirish;

-Irrigatsiya va suv resurslari;

-IT va biznes ingliz tili kabi kurslar mavjud.